O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	



KIRISH

O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, inklyuziv rivojlanishga erishish va global raqobat muhitida o'z o'rnini mustahkamlash uchun mamlakat innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi qiymat yaratish mexanizmlarini sinovdan o'tkazish va joriy etish bo'yicha izchil siyosat yuritishi zarur. Bu jarayonda mavjud salohiyatning muhim qismi ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq. Shu bois, mamlakat iqtisodiy rivojida dinamik xususiy sektor, innovatsion fikrlovchi va yangilik yaratishga qodir tadbirkorlar qatlamining shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Telekommunikatsiya sohasi va IT klasterlarning innovatsion rivojlanishdagi o'rni so'nggi yillarda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan chuqur ilmiy o'rganilmoqda. Tadqiqotlarning asosiy e'tibori innovatsion klasterlash, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda telekommunikatsiya tarmoqlarining barqaror raqobatbardoshligini ta'minlash masalalariga qaratilgan. Xususan, M. Porter (1998) o'zining "Clusters and the New Economics of Competition" nomli asarida klasterlarni innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida ta'riflab, ularning mintaqaviy raqobatbardoshlikka ta'sirini tahlil qilgan. Shuningdek, J. Sölvell, G. Lindqvist va C. Ketels (2003) klaster siyosatini amaliyotga joriy etishning modelini ishlab chiqib, IT sektori klasterlari orqali texnologik yangiliklarni tezroq tijoratlashtirish imkoniyatlarini asoslab bergan. E. Autio va H. Thomas (2018) esa telekommunikatsiya sohasidagi startap ekotizimlarini rivojlantirishda IT klasterlarning ahamiyatini empirik dalillar bilan tasdiqlagan.

Mahalliy ilmiy manbalarda bu masala hozircha to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, IT klasterlar telekommunikatsiya korxonalarining texnologik yangilanishini tezlashtirish, ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda. Shu asosda aytish mumkinki, ilmiy adabiyotlar IT klasterlar faoliyati telekommunikatsiya sohasida innovatsion jarayonlarni kuchaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda telekommunikatsiya sohasi korxonalarining innovatsion faolligini oshirishda IT klasterlarning o'rni, ularning rivojlanish mexanizmlari hamda boshqaruv modelini aniqlashga yo'naltirilgan kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda tizimli, tahliliy, qiyosiy va induktiv metodlardan foydalanilib, sohaning innovatsion rivojlanish jarayonlari, IT klasterlarining iqtisodiy va tashkiliy xususiyatlari hamda raqamli infratuzilma bilan integratsiyasi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi qarori bilan "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlangan¹. Ushbu strategiya mamlakatda innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish, inson kapitalini yuksaltirish va ilmiy-innovatsion sohalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Mazkur strategiya asosida O'zbekistonda telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari belgilangan bo'lib, ular ilg'or texnologiyalarni joriy etish, IT infratuzilmani kengaytirish va innovatsion ekotizimni shakllantirishga qaratilgan. Strategiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Startaplarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion infratuzilmani yaratish. Texnoparklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur tashkilotlar va biznes-inkubatorlar tarmog'ini shakllantirish orqali innovatsiyalarni joriy etish va yangi texnologiyalar asosida keng ko'lamli ishlab chiqarishni rag'batlantirish nazarda tutilgan.

- Innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini ishlab chiqish, xususiy sektorning innovatsion jarayonlardagi faolligini oshirish va yangi ishtirokchilar sonini ko'paytirish maqsad qilingan.

- Inson kapitalini rivojlantirish. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ijodkorlik, innovatsion fikrlash va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsiyalarni boshqarishga qodir mutaxassislar avlodini shakllantirish ko'zda tutilgan.

1 <https://lex.uz/>




– Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish. Kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirish, hududiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va mahalliy darajada yangi texnologiyalarni joriy etish orqali hududlarda innovatsion muhitni kengaytirish rejalashtirilgan.

– Innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish. Ichki va tashqi bozorlarda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni tijoratlashtirish uchun g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi kompleks tizimni yaratish strategik vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur strategiya yo'nalishlari innovatsion subyektlar va infratuzilma elementlarini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, patentlar hamda ilmiy ishlanmalar sonini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu chora-tadbirlar ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirib, O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Umuman olganda, strategiyada belgilangan mexanizmlar innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, telekommunikatsiya sohasida barqaror innovatsion muhitni yaratish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion infratuzilmaning xususiyatlari

Innovatsion jarayonning turli ishtirokchilari – biznes, ilm-fan va hukumat o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradigan muhit sifatida shakllanadi. Ushbu komponentlar o'zaro ta'sir qiladi va bir-birini to'ldiradi, natijada yangi texnologiyalar hamda ilg'or yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni osonlashtiradigan barqaror hamda samarali innovatsion infratuzilma yaratiladi.

Mazkur chora-tadbirlar O'zbekistonning 2026-yilgacha Global innovatsiyalar indeksida yetakchi davlatlar qatoriga kirishiga xizmat qilishi lozim. Shu strategiyalardan kelib chiqqan holda, Respublikada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga innovatsiyalarni keng joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish, shuningdek, ilmiy va innovatsion sohalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyatini kengaytirish uchun infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning mukammal tarkibiy modeli ishlab chiqildi². Telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyatini infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning tarkibi oltita asosiy qismdan iborat bo'lib, ular quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1) Texnologik infratuzilma – innovatsion salohiyatning ajralmas qismi bo'lib, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish uchun yuqori hisoblash quvvatiga ega resurslarni taqdim etadi. U korxona ichida hamda tashqi hamkorlar bilan samarali va ishonchli ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi. Shuningdek, IT-loyihalar uchun moslashuvchanlik va miqyoslilikni kafolatlaydi, bu esa o'zgaruvchan bozor talablariga tezda moslashish imkonini beradi.

2) Ilmiy-ta'lim infratuzilmasi – ilmiy tadqiqotlarga kirish imkoniyatini kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur infratuzilma tadqiqotlar, innovatsion ishlanmalar, tajribalar va yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish uchun zarur laboratoriyalar, ilmiy adabiyotlar, patentlar va boshqa axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqildi.


3) Moliyaviy infratuzilma – yangi texnologiyalar, uskunarlar va xizmatlarni ishlab chiqish hamda joriy etish uchun zarur moliyaviy resurslardan foydalanishni ta'minlaydi. Bunga kreditlar, investitsiyalar, moliyaviy vositalar va boshqa turdagi moliyaviy yordam shakllari kiradi. Bundan tashqari, moliyaviy infratuzilma risklarni sug'urtalash, aktivlarni boshqarish, konsalting va boshqa ixtisoslashgan xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu xizmatlar telekommunikatsiya korxonalariga moliyaviy risklarni samarali boshqarish va investitsiya strategiyalarini optimallashtirishda yordam beradi.

4) Biznes infratuzilmasi – innovatsion kompaniyalarni murabbiylik, moliyalashtirish va resurslardan foydalanish orqali qo'llab-quvvatlaydi. U frilanserlar, startaplar va kichik korxonalar uchun umumiy ofis joylari, menejment, marketing, huquqiy masalalar va intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha xizmatlarni taqdim etadi. Biznes infratuzilmasining ushbu elementlari aloqa korxonalarining innovatsion faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi, ularning raqobatbardoshligini oshiradi hamda tez o'zgaruvchan texnologik muhitda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

5) Tarmoq va hamkorlik infratuzilmasi – telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U zarur o'zaro hamkorlikni, bilim va resurslar almashinuvini yo'lga qo'yadi, innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtiradi. Bunday infratuzilma innovatsion yechimlarni samarali ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etish imkonini beruvchi ekotizimni yaratadi. Bu esa innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi, xarajat va xatarlarni kamaytiradi hamda O'zbekiston korxonalarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

6) Ijtimoiy infratuzilma – aloqa korxonalarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. U innovatsion ekotizim ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, ijodkorlikni, ijtimoiy faollikni va barqaror rivojlanishni rag'batlantiruvchi innovatsion madaniyatni shakllantiradi. Ijtimoiy infratuzilma nafaqat xodimlarning hayot sifati va kasbiy mahoratini oshiradi, balki tashkilot ichida innovatsion fikrlashni chuqurlashtiradi va jamoaviy ijodiy muhitni mustahkamlaydi.

Natijada, IT-korxonalarning innovatsion faoliyatini infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning tarkibiy modeli turli elementlardan iborat bo'lib, ularning har biri innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratishda o'ziga xos rol o'ynaydi. Ushbu modelning samarali amalga oshirilishi korxonalarga yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, bozor o'zgarishlariga moslashish hamda raqobatbardoshlikni saqlab qolish imkonini beradi. Zamonaviy ilmiy tamoyillar, ilg'or usullar va yondashuvlar asosida shakllangan innovatsion tizim hamda uni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma O'zbekistonning innovatsion rivojlanish yo'lga to'liq o'tishini ta'minlay oladi (2-rasm).



2-rasm. IT klasterning tipik modeli³

3 Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, quyida IT klasterning tipik modeli ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan model quyidagi asosiy tarkibiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. IT-klaster yadrosi (o'zagi);
2. IT-klaster assotsiatsiyasi;
3. IT-klasterning ichki muhiti;
4. IT-klasterning tashqi muhiti.

1. IT-klaster yadrosi

Klaster yadrosi – bu ishlab chiqaruvchi kompaniyalar majmuasidan iborat bo'lib, ular mahalliy bozorda faoliyat yuritadi va o'z mahsulot hamda xizmatlarini mintaqadan tashqariga eksport qiladi. Klaster yadrosi asosiy faoliyat yo'nalishlariga ixtisoslashgan, yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchi tayanch korxonalarni o'z ichiga oladi. Ular odatda geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan bo'lib, klasterning boshqa ishtirokchilari bilan doimiy o'zaro aloqada bo'ladi.

Klaster ishtirokchilari o'zaro raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan infratuzilmani baham ko'radilar. Shu tarzda klasterning barqaror innovatsion ekotizimi shakllanadi.

IT-klasterning yadrosi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. IT-kompaniyalar – dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilar, apparat ta'minotchilari, konsalting firmalari hamda axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan boshqa korxonalar. Ular IT sohasidagi texnologik yechimlarni ishlab chiqish, joriy etish va modernizatsiya qilishda muhim o'rin tutadi.

2. Dasturiy ta'minot va raqamli xizmatlar provayderlari – axborot xavfsizligi, bulutli texnologiyalar, internet ashyolari (IoT), sun'iy intellekt (AI) va raqamli transformatsiya xizmatlarini taklif etuvchi kompaniyalar. Ularning faoliyati texnologik innovatsiyalarni tijoratlashtirishni tezlashtiradi.

3. Ta'lim muassasalari – IT-klasterning intellektual bazasini shakllantiradi. Ular axborot texnologiyalari sohasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlaydi. Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, INHA universiteti, hamda AMITY universiteti bu borada yetakchi rol o'ynaydi. Ushbu ta'lim muassasalari klaster uchun yuqori malakali kadrlar va intellektual resurslar oqimini ta'minlaydi.

4. Ilmiy-tadqiqot markazlari – ilmiy izlanishlar olib borish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va innovatsiyalarni joriy etish bilan shug'ullanadi. Ular olimlar, muhandislar, tadqiqotchilar va texnik mutaxassislardan iborat bo'lib, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim o'rin egallaydi.

Ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bir-birini to'ldiradi: ta'lim muassasalari malakali kadrlar tayyorlash va fundamental bilimlarni berish bilan shug'ullansa, ilmiy markazlar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishga yo'naltirilgan. Ular o'rtasidagi hamkorlik IT-klasterning o'sishi, raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Texnoparklar va inkubatorlar – IT-klaster ekotizimining muhim tarkibiy qismlari bo'lib, innovatsion loyihalarni tezlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Texnoparklar zarur infratuzilma bilan ta'minlab, texnologiyalarni tijoratlashtirishni osonlashtiradi, inkubatorlar esa startaplarni qo'llab-quvvatlab, ularning o'sishini jadallashtiradi va investitsiyalarni jalb qilish imkonini yaratadi. Ushbu tuzilmalarning o'zaro hamkorligi IT-klasterda innovatsiyalar, tadbirkorlik va iqtisodiy o'sish uchun qulay muhitni shakllantiradi.

2. IT-klaster assotsiatsiyasi

IT-klaster assotsiatsiyasi – klasterning yagona boshqaruv va koordinatsiya markazi sifatida faoliyat yuritadi. U IT-ekotizimini rivojlantirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, kadrlar salohiyatini oshirish va soha ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Assotsiatsiya quyidagi strategik vazifalarni bajaradi:

IT sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirish va texnologik hamkorlikni mustahkamlash;

Raqobatbardoshlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;

Bozor ishtirokchilari o'rtasida manfaatlar muvozanatini yaratish;

Innovatsion loyihalar uchun grantlar, investitsiyalar va davlat dasturlari doirasida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirish;

Ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirish.

Natijada, IT-klaster assotsiatsiyasi klasterning barcha ishtirokchilari uchun barqaror, samarali va raqobatbardosh innovatsion muhit yaratadi. Bu esa O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

3. IT-klasterning ichki muhiti

Klasterning ichki muhiti – bu uning faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi barcha ichki omillar majmuasidir. U klaster doirasidagi kompaniyalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, hamkorlik qilish, innovatsiyalar yaratish va resurslardan birgalikda foydalanish imkoniyatlarini birlashtiradi.



IT-klasterning ichki muhitida turli xil firmalar faoliyat yuritadi, ular klaster ishtirokchisi bo'lishi yoki unga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar sifatida qatnashishi mumkin. Quyida IT-klaster ichki muhitiga kiruvchi asosiy firmalar tavsiflanadi:

Xaridorlar. IT-klasterning asosiy xaridorlari korxonalar, davlat idoralari, jismoniy shaxslar, startaplar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlardan iborat bo'lishi mumkin. Ularning talablari va ehtiyojlari IT mahsulotlari hamda xizmatlariga bo'lgan talabni belgilaydi va klasterning rivojlanish yo'nalishlarini shakllantiradi. Xaridorlar faol ishtiroki klasterda innovatsion yechimlar ishlab chiqilishi va bozor ehtiyojlariga mos takliflarning shakllanishini rag'batlantiradi.

Sug'urta kompaniyalari. Ushbu tashkilotlar IT-klaster tarkibidagi kompaniyalarni axborot xavfsizligi, kiberhujumlar, ma'lumotlarning sizib chiqishi va faoliyat bilan bog'liq boshqa xavflardan himoya qilish uchun ixtisoslashtirilgan sug'urta mahsulotlarini taklif etadi. Bu esa klaster ishtirokchilarining moliyaviy barqarorligi va xavfga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy institutlar. Ular IT-klasterdagi startaplar va innovatsion loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi, investitsiyalarni jalb qiladi hamda kompaniyalarning moliyaviy barqarorligiga hissa qo'shadi. Shuningdek, aktivlarni boshqarish, investitsiya bo'yicha maslahatlar, kreditlash va boshqa turdagi moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Moliyaviy institutlarning faol ishtiroki klasterning iqtisodiy poydevorini mustahkamlaydi va yangi texnologik yechimlarni joriy etishni tezlashtiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar. Bu kompaniyalar xosting, bulutli hisoblash, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, texnik qo'llab-quvvatlash va boshqa AT xizmatlarining keng doirasini taqdim etadi. Shuningdek, ular strategik rejalashtirish, raqamli transformatsiya, IT jarayonlari outsorsingi va biznes konsalting xizmatlari orqali klaster ishtirokchilarining operatsion samaradorligini oshiradi.

Ushbu firmalar o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritib, IT-klasterning ichki muhitida innovatsion rivojlanish, texnologik integratsiya va iqtisodiy o'sish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

4. IT-klasterning tashqi muhiti

Klasterning tashqi muhiti – bu klasterdan tashqarida joylashgan, biroq uning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuasidir. Bu omillar klasterning strategik rejalashtirilishi, rivojlanish sur'ati va barqarorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hukumat. Davlat siyosati, qonunlar, soliq imtiyozlari, litsenziyalash tartiblari va boshqa me'yoriy-huquqiy normalar IT-klaster faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hukumat tomonidan yaratilgan qulay investitsion muhit, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va texnologik infratuzilmani rivojlantirish choralari klaster ishtirokchilari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Infratuzilma. Mintaqada transport, aloqa, energetika, logistika va internet tarmoqlarining rivojlanganligi klasterning samarali faoliyatini ta'minlaydi. Zamonaviy infratuzilma kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi, resurslar almashinuvini tezlashtiradi hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

Tashqi muhit omillarini chuqur tahlil qilish klasterning uzoq muddatli strategik rejalashtirishida muhim ahamiyatga ega. Ular hisobga olingan holda ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyasi IT-klasterning raqobatbardoshligini, barqarorligini va jahon bozorida o'z o'rnini mustahkamlash imkonini beradi.

IT-klasterning eng muhim farqlovchi jihati shundaki, unga kiruvchi kompaniyalar yagona qiymat zanjiri doirasida faoliyat yuritadi. Har bir kompaniya yakuniy xizmatni mustaqil ravishda amalga oshiradi, shu bilan birga klasterdagi boshqa ishtirokchilar bilan uzviy aloqada bo'ladi. IT-kompaniyalar keng turdagi xizmatlarni taklif etib, iste'molchi ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini yaratadi.

Bu o'zaro raqobat va hamkorlik uyg'unligi klaster ishtirokchilarining barqaror rivojlanishiga, raqobatbardoshligini oshirishga hamda tez o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Garchi IT-klasterda faoliyat yuritish ba'zi tashkiliy va texnologik murakkabliklarni keltirib chiqarsa-da, bu holatlar tizimli boshqaruv, hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va risklarni puxta boshqarish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Shunday qilib, IT-klasterga qo'shilish IT-biznesni kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishga intilayotgan kompaniyalar uchun strategik jihatdan foydali hisoblanadi. IT-klasterdagi moliyaviy menejment puxta tahlil, rejalashtirish va samarali boshqaruv orqali kompaniyalarga foydani ko'paytirish hamda mavjud to'siqlarni minimallashtirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, telekommunikatsiya sohasi korxonalarining innovatsion faolligini oshirishda IT-klasterlar muhim iqtisodiy va tashkiliy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. IT-klasterlar nafaqat texnologik yangiliklarni tezkor joriy etish imkonini beradi, balki ilmiy tadqiqotlar, startaplar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida samarali hamkorlik tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston



telekommunikatsiya tarmog'ida IT-klaster yondashuvini joriy etish orqali innovatsion mahsulot va xizmatlarni tijoratlashtirish jarayonini tezlashtirish, kichik IT-kompaniyalar va startaplarning yirik telekommunikatsiya kompaniyalari bilan integratsiyasini kuchaytirish, mahalliy ishlab chiqishlar va raqamli texnologiyalar eksport salohiyatini oshirish, ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalari hamda biznes sektori o'rtasida uzviy innovatsion hamkorlik tizimini shakllantirish kabi ijobiy natijalarga erishish mumkin. Telekommunikatsiya sohasining barqaror rivojlanishi bevosita innovatsion boshqaruv tizimlarini shakllantirish va samarali amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu nuqtai nazardan IT-klasterlar ilm-fan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektorlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlovchi katalizator sifatida faoliyat yuritadi. O'zbekiston amaliy tajribasi shuni tasdiqlamoqdaki, klaster yondashuvi innovatsion faollikni oshirish, yangi texnologiyalarni tezkor joriy etish va raqamli iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashda eng samarali vositalardan biridir. Kelgusida IT-klasterlar faoliyatini hududiy darajada kengaytirish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan institutsional integratsiyani kuchaytirish, shuningdek, startaplar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish telekommunikatsiya sohasining ustuvor rivojlanish yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Umuman olganda, IT-klasterlar O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida telekommunikatsiya tarmog'ining innovatsion o'sishini jadallashtiruvchi, yuqori samarali boshqaruv modeli sifatida qaralmoqda. Ularning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki milliy innovatsion tizimning raqobatbardoshligini mustahkamlashga, inson kapitalini rivojlantirishga va texnologik yangilanishni jadallashtirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. E. (1998). *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review, 76(6), 77–90.
2. Sölvell, Ö., Lindqvist, G., & Ketels, C. (2003). *The Cluster Initiative Greenbook*. Stockholm: Ivory Tower AB.
3. Autio, E., & Thomas, H. (2018). *Innovation Ecosystems: Theoretical Foundations and Emerging Research Themes*. In A. Grandori (Ed.), *Handbook of Research on Clusters* (pp. 50–72). Springer.
4. Хожиева, Н. Д. (2020). *Миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишда кластер ёндашуви*. Academic Research in Educational Sciences, (4), 328–333.
5. Davronbekovna, X. N. (2023). *O'zbekistonda IT-klasterini rivojlantirish istiqbollari va ularni boshqarishning yangi strategiyalarini ishlab chiqish*. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (4), 20–31.
6. Davronbekovna, X. N. (2024). *O'zbekiston telekommunikatsiya sohasining innovatsion faoliyati holatini baholash*. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 290–302.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>